PEDAGOGIK KLASTER ŞAROITIDA ÖQUVÇILARDA RAQAMLI MADANIYAT VA MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRIŞ

Baynazarova Gulnoza Abduravulovna,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvçisi
DOI: 10.67620/yoshlarvailm.0340035

Annotatsiya. Maktab ta'limining raqamli transformatsiyasi öquvçilarda nafaqat texnik könikmalarni, balki raqamli madaniyat va ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni ham rivojlantirişni taqozo etadi. Tadqiqotning maqsadi pedagogik klaster şaroitida uşbu kompetensiyalarni maktab, oila, mahalla va oliy ta'lim muassasalari hamkorligida rivojlantirişning ijtimoiy-pedagogik asoslarini aniqlaş hamda konseptual modelini taklif etişdan iborat. Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, rasmiy statistik ma'lumotlarni sintez qiliş, ilmiy adabiyotlarni örganiş va konseptual umumlaştiriş usullaridan foydalanildi. Tahlillar 2021–2025-yillarda 10 yoş va undan katta aholi orasida internetdan foydalaniş darajasi 76,6 foizdan 94,2 foizga oşganini körsatdi. Şu bilan birga, maktablarda texnik ta'minot va internetdan foydalaniş imkoniyatlari bilan boğliq muammolar saqlanib qolmoqda. Natijada raqamli tengsizlik masalasi foydalaniş imkoniyatidan foydalaniş sifati va tarbiyaviy mazmuniga köçmoqda. Maqolada makro, mezo va mikro darajalarni qamrab oluvçi, klaster subyektlari vazifalarini belgilovçi muallif konseptual modeli işlab çiqildi. Model empirik sinovdan ötkazilmagan bölib, kelgusidagi amaliy tadqiqotlar uçun nazariy asos sifatida taklif etiladi.

Kalit sözlar: pedagogik klaster; raqamli madaniyat; ma'naviy-axloqiy kompetensiya; uzluksiz ma'naviy tarbiya; axborot xavfsizligi; maktab-oila-mahalla hamkorligi; raqamli tengsizlik; umumiy örta ta'lim.

Аннотация. Цифровая трансформация школьного образования требует развития у учащихся не только технических навыков, но и цифровой культуры, а также духовно-нравственных компетенций. Цель исследования — определить социально-педагогические основы развития данных компетенций в условиях педагогического кластера на основе сотрудничества школы, семьи, махалли и высших образовательных учреждений, а также предложить концептуальную модель. В исследовании использованы методы анализа нормативно-правовых документов, обобщения официальных статистических данных, изучения научной литературы и концептуального обобщения. Анализ показал, что в 2021–2025 годах доля пользователей интернета среди населения в возрасте 10 лет и старше увеличилась с 76,6 до 94,2 %. Вместе с тем сохраняются проблемы технического оснащения школ и обеспечения доступа к интернету. В результате проблема цифрового неравенства смещается от доступности к качеству использования цифровых ресурсов и их воспитательному содержанию. В статье предложена авторская концептуальная модель, охватывающая макро-, мезо- и микроуровни и определяющая функции субъектов педагогического кластера. Модель не прошла эмпирическую апробацию и рассматривается как теоретическая основа

для дальнейших практических исследований.

Ключевые слова: педагогический кластер; цифровая культура; духовно-нравственная компетентность; непрерывное духовно-нравственное воспитание; информационная безопасность; взаимодействие школы, семьи и махалли; цифровое неравенство; общее среднее образование.

Abstract. The digital transformation of school education requires the development of not only technical skills but also digital culture and moral competencies among students. The aim of this study is to identify the socio-pedagogical foundations for developing these competencies within a pedagogical cluster through cooperation among schools, families, mahallas, and higher education institutions, and to propose a conceptual model. The study employs methods of regulatory document analysis, synthesis of official statistical data, review of scientific literature, and conceptual generalization. The analysis shows that between 2021 and 2025, the proportion of internet users aged 10 and above increased from 76.6% to 94.2%. However, problems related to the technical provision of schools and internet access remain. Consequently, the focus of digital inequality is shifting from access availability to the quality of digital resource use and its educational content. The article proposes an original conceptual model covering macro, meso, and micro levels and defining the roles of pedagogical cluster stakeholders. The model has not been empirically validated and is considered a theoretical basis for future practical research.

Keywords: pedagogical cluster; digital culture; spiritual-moral competence; continuous spiritual education; information security; school-family-mahalla cooperation; digital inequality; general secondary education.

Kiriş

2025/2026-öquv yili boşida Özbekistonda 11 118 ta umumiy örta ta’lim taşkiloti faoliyat yuritgan, ularda 6 870,5 ming öquvçi tahsil olgan. Şu davrda aholining deyarli barça qatlami raqamli muhitga kirib keldi: 2025-yilning yanvar–avgust oylarida 10 yoş va undan katta aholining 94,2 foizi internetdan foydalangan. Öquvçining ma’naviy olami endi faqat sinfxona, oila va mahalla doirasida şakllanmaydi; ijtimoiy tarmoq, messenjer va video platformalar ham tarbiyaviy ta’sir maydoniga aylangan.

Davlat siyosatida bu jarayonlar turli hujjatlarda aks etgan. “Raqamli Özbekiston – 2030” strategiyasi raqamli infratuzilma va ta’limni ustuvor vazifa sifatida belgilagan, Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi esa tarbiyani oila va ta’lim bosqiçlari böylab izçil olib borişni nazarda tutadi. Bolalarni zararli axborotdan himoya qiliş va kiberxavfsizlikka oid qonunlar uçinçi, himoyaviy yönalişni taşkil etadi. Amalda raqamli könikma informatika darsiga, axloqiy tarbiya “Tarbiya” fani va sinf rahbariga, xavfsizlik esa huquq-tartibot organlariga yuklanadi.

Ilmiy muammo aynan şu bölinişdan kelib çiqadi. Sinfdoşining suratini ruxsatsiz tarqatgan öquvçi bir paytning özida şaxsiy ma’lumot daxlsizligini, muloqot odobini va hamdardlik me’yorini buzadi; bunday xulqni bitta fan yoki bitta muassasa doirasida tarbiyalab bölmaydi. Ta’lim, ilmiy-metodik va jamoatçilik institutlarining muvofiqlaştirilgan hamkorligi sifatidagi pedagogik klaster bu uzilişni yengişning tabiiy şakli bölişi mumkin. Biroq mahalliy adabiyotda klaster asosan pedagog kadrlar

tayyorlaş kontekstida örganilgan.

Maqola uç savolga javob izlaydi: amaldagi normativ hujjatlar ikki kompetensiya guruhini integratsiyalaş uçun qanday tayanç yaratadi? Klaster subyektlari örtasida vazifalarni qanday taqsimlaş ularni özaro töldiruvçi tizimga aylantiradi? Rasmiy statistika raqamli tengsizlikning qaysi jihatlarini körsatadi va qaysilarini körsatmaydi? Işning hissasi yangi empirik dalil emas, balki tarqoq manbalarni yagona tahliliy ramkaga keltiriş va tekşiriladigan konseptual model taklif etişdir.

Adabiyotlar tahlili

Klaster va hamkorlik nazariyasi. M. Porter (1998) klaster ğoyasi ta'limga köçirilganda raqobat örnini umumiy tarbiyaviy maqsad egalladi, a'zolar qatoriga oila va jamoatçilik kirdi. "Uçlik spiral" modeli bilim yaratiş va uni amaliyotga joriy etişni boğlaş mantiğini beradi; pedagogik klasterda bu "OTM - maktab - metodik markaz" zanjirida namoyon böladi va PQ-4623 (2020) qarorida ta'lim, ilm-fan va amaliyot uyğunligi sifatida belgilangan. U. Bronfenbrennerning (1979) ekologik nazariyasiga köra, bola rivojlanişi mikrotizimlar orasidagi aloqalar - mezotizim sifatiga boğliq.

J. Epstein (1995) maktab, oila va jamoaning kesişuvçi ta'sir doiralari modelini taklif etgan, A. Henderson va K. Mapp (2002) umumlaştirgan tadqiqotlar esa oilaning maktab hayotiga jalb etilişi öquv natijalari va xulq bilan ijobiy boğliqligini körsatadi. Özbekistonda bu modelga mahalla instituti qöşiladi; Tarbiya pedagogikasi milliy institutining vazifalari qatorida "mahalla - ota-ona - maktab" hamkorligini ilmiy-metodik qöllab-quvvatlaş ham körsatilgan.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya. Abdulla Avloniy (1913) tarbiyani yaxşi xulqlarni odat darajasiga yetkaziş deb talqin qilgan; bu qaraş T. Likonaning axloqiy bilim, his va xatti-harakatni yaxlit tarbiya predmeti deb bilişi bilan hamohang. L. Kolberg axloqiy mulohazaning bosqiçma-bosqiç rivojlanişini körsatgan, M. Berkowitz va M. Bier (2004) esa samarali xarakter tarbiyasi maktab muhiti, kattalar namunasi va oila bilan hamkorlikni öz içiga olişini ta'kidlaydi. Bu xulosa klaster yondaşuvini nazariy jihatdan qöllab-quvvatlaydi.

Raqamli madaniyat. DigComp 2.2 raqamli kompetensiyani axborot savodxonligi, muloqot va hamkorlik, kontent yaratiş, xavfsizlik va muammolarni hal qiliş sohalariga ajratadi; Yevropa Kengaşining raqamli fuqarolik qöllanmasi onlayn mavjudlik, farovonlik va huquqlarni yagona tarbiyaviy maqsadga birlaştiradi; M. Choi (2016) raqamli fuqarolikning axloqiy tarkibini alohida ajratadi. Barça uç ramkada axloqiy ölçov raqamli kompetensiyaning içki qismi hisoblanadi. Mazkur maqolada "raqamli madaniyat" raqamli muhitdagi qadriyat, me'yor va odatlar tizimi sifatida tuşuniladi. J. Suler (2004) tavsiflagan onlayn tormozsizlik effekti va A. Bandura (2002) körsatgan axloqiy özini oqlaş mexanizmlari esa axloqiy qoidani biliş uni raqamli muhitda bajarişni kafolatlamasligini isbotlaydi.

Özbekistonga oid tadqiqotlar. D. Taşmuxamedova öqituvçi va ota-onalarning ösmirlar internetdan foydalanişi haqidagi tasavvurlari haqiqiy holatga mos kelmasligini aniqlagan. N. Sobirova PISA 2022 ma'lumotlariga köra 15 yoşli öquvçilarning 17,1 foizi oyiga bir neça marta bullingga duç kelişini, migrant oilalar farzandlarida bu körsatkiç 30,6 foizga yetişini qayd etadi. Raqamli xavflar asosan huquqiy-kriminologik, ma'naviy tarbiya esa falsafiy-pedagogik nuqtai nazardan örganilgan; ularni boğlovçi işlar deyarli uçramaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot sifat yönalişidagi hujjatli-konseptual dizaynga ega bölib, mavjud joyda ikkilamçi miqdoriy körsatkiçlar bilan töldirilgan. Sörovnoma, intervyu, dars kuzatuvi yoki pedagogik tajriba ötkazilmagan; barça raqamlar e'lon qilingan manbalardan olingan. Manbalar tört guruhdan iborat: normativ hujjatlar, Milliy statistika qömitasi ma'lumotlari, xalqaro taşkilotlar naşrlari va taqrizlanadigan ilmiy adabiyotlar.

Qidiruv 2026-yil 18-oktabrda özbek, ingliz va rus tillarida ötkazildi. Kiritiş mezonlari: mavzuga bevosita aloqadorlik, rasmiy yoki taqrizlangan naşr bölişi, bibliografik ma'lumotni tekşiriş imkoni. Muallifsiz materiallar va asl manbasi topilgan qayta tarqatilgan statistika çiqarib taşlandi. Statistikada kuzatuv yili naşr yilidan ajratildi, faqat bir xil ta'rif va aholi guruhiga asoslangan qatorlar taqqoslandi; 10+ yoşli aholiga oid körsatkiçlar öquvçilar kompetensiyasi sifatida talqin qilinmadi. Sifatiy manbalar deduktiv va induktiv kategoriyalar böyiça tematik tahlil qilindi, model esa ekologik yondaşuv asosida yiğildi. Öquvçilarning onlayn xulqi, maktablar raqamli resurslari va klasterlar samaradorligi böyiça yoşga xos milliy ma'lumotlar oçiq manbalarda topilmadi – bu işning asosiy çeklovidir.

Natijalar va tahlil

Ta'lim tizimidagi raqamli transformatsiya

"Ta'lim töğrisida"gi qonun umumiy örta ta'limni I–XI sinflarni qamrovçi bosqiç sifatida belgilab, masofaviy ta'limga huquqiy asos yaratgan. Raqamlaşuv uç bosqiçda keçgan: infratuzilma bosqiçi, "Raqamli Özbekiston – 2030" strategiyasi bosqiçi va ta'limni xalqaro standartlarga moslaştirişni közlagan "Özbekiston – 2030" bosqiçi. Asosiy körsatkiçlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Ta'limning raqamlaştirilişiga oid tasdiqlangan körsatkiçlar

Körsatkiç	Qiymat	Davr	Manba
Umumiy örta ta'lim taşkilotlari, birlik	10 181 → 11 118	2020/21 → 2025/26	MSQ (2025a; 2026)
şu jumladan nodavlat, birlik	102 → 551	2020/21 → 2025/26	MSQ (2025a; 2026)
Öquvçilar, ming kişi	6 287,9 → 6 870,5	2020/21 → 2025/26	MSQ (2025a; 2026)
Yuqori tezlikdagi internetga ega maktablar, %	7	2018	UNICEF & Generation Unlimited (n.d.)
Bir öquvçiga töğri keladigan maktab kompyuteri	0,03 (qişloqda 0,04)	2024-yilda e'lon qilingan	Gazeta.uz (2024), IMRS
Internetdan foydalanuvçi aholi (10+ yoş), %	76,6 → 94,2	2021 → 2025 (I–VIII)	MSQ (2025b)
Ta'lim muassasasida internetdan foydalanuvçilar (10+), %	3,6 → 12,3	2021 → 2024 (I–VI)	MSQ (2024b)

Izoh: *MSQ – Milliy statistika qömitasi*

Kompyuterlar böyiça raqamlar IMRS ekspertlariga tegişli va ikkilamçi manba orqali keltirilgan. Aholiga oid körsatkiçlar öquvçilarga xos emas.

Jadvaldan ikki holat körinadi. Beş öquv yilida maktablar soni 937 taga, öquvçilar 582,6 ming kişiga köpaygan, nodavlat maktablar 5,4 baravar ortgan; ularning 26,3 foizi Toşkent şahrida, 22,0 foizi Farğona viloyatida joylaşgan. Şu bilan birga, aholi darajasidagi kiriş imkoniyati va maktab içidagi resurslar örtasida keskin nomutanosiblik saqlanmoqda: deyarli barça maktablarga optik tolali yoki radiorele aloqa tortilgan bölsada, kompyuter ta'minoti oçiq masala bölib qolgan. Bir öquvçiga 0,03 ta kompyuter – taxminan 33 öquvçiga bitta qurilma demakdir. Natijada öquvçining asosiy raqamli tajribasi uyda, şaxsiy smartfon orqali keçadi.

Pedagogik klasterning institutsional imkoniyatlari

"Pedagogik klaster" atamasi qonun darajasida yagona ta'rifga ega emas. Çirçiq davlat pedagogika universitetidagi "Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri" doirasida 22 ta maktabda "maktab-laboratoriya" loyihasi amalga oşirilmoqda, ya'ni klaster asosan universitet va maktabni ilmiy-metodik boğlaş vositasi sifatida qöllanmoqda. Tarbiya metodikalarini işlab çiqiş va tadqiqotlarni muvofiqlaştiriş vakolatiga ega Tarbiya pedagogikasi milliy instituti klasterning ilmiy-metodik markaziga aylanişi mumkin. Taklif etilayotgan funksional taqsimot 2-jadvalda berilgan.

2-jadval

Klaster subyektlarining taklif etilayotgan funksional vazifalari

Subyekt	Raqamli madaniyat	Ma'naviy-axloqiy tarbiya
Maktab	Fanlararo raqamli savodxonlik; içki raqamli muloqot qoidalari; hodisalarni qayd etiş tartibi	Raqamli vaziyatlar asosida axloqiy muhokama; sinfda hamdardlik muhiti
Oila	Uydagi qurilma va kontent qoidalari; yoşga mos çeklovlar	Şaxsiy namuna; raqamli tajriba haqida oçiq muloqot
Mahalla	Kompyuter klublari va öquv markazlarida profilaktika; ota-onalar bilan uçraşuvlar	Avlodlararo muloqot; xavf ostidagi oilalar bilan yakka iş
Pedagogika OTM	Bölajak öqituvçilarning raqamli-pedagogik tayyorgarligi	Tarbiya metodikasi böyiça tadqiqot
Tarbiya pedagogikasi milliy instituti	Raqamli tarbiya modullari va qöllanmalari	Metodikalarni işlab çiqiş; tadqiqotlarni muvofiqlaştiriş
Davlat organlari	Kiberxavfsizlik axboroti; zararli kontentga qarşi çoralar	Zöravonlikdan jabrlangan bolalarni himoya qiliş

Manba: muallif işlanmasi

Jadval amaldagi emas, taklif etilayotgan taqsimotni aks ettiradi.

Har bir subyekt ikkala yönalişda iştirok etadi, ammo öz nisbiy ustunligiga ega: maktab muntazam ta'sir körsatadi, oila kundalik odatlarni nazorat qiladi, mahalla

jamoaviy me’yorni ta’minlaydi, OTM va institut metodik asos yaratadi, davlat organlari huquqiy himoyani amalga oşiradi. Klasterning qöşimça qiymati subyektlarni yiğişda emas, ularning ta’sirini izçil qilişdadir: maktabda örgatilgan muloqot odobi uyda inkor etilsa, tarbiyaviy ta’sir zaiflaşadi.

Raqamli va axloqiy kompetensiyalarning uzviyligi

Tematik tahlilga köra, raqamli savodxonlikning texnik, kommunikativ va xavfsizlik qatlamlari axloqiy tarkibdan ajralmaydi. “Manbani tekşiriş” texnik könikma böliş bilan birga haqiqatga sodiqlik mas’uliyatini, “şaxsiy ma’lumot daxlsizligi” esa özgalar ma’lumotiga hurmatni ham talab qiladi. Normativ hujjatlarda ma’naviy tarbiya yaxlit jarayon sifatida talqin etilsa-da, onlayn muloqot odobi va raqamli iz kabi aniq xulq me’yorlari tavsiflanmagan. Ma’naviy-axloqiy kompetensiyani qadriyatli asos, axloqiy mulohaza va xulq birligi sifatida ifodalaş maqsadga muvofiq; raqamli muhitda aynan ular orasidagi uziliş kuçayadi. Şu sababli “Tarbiya” fani raqamli vaziyatlar tahlili, rolli öyinlar va empatiya maşqlari bilan boyitilişi lozim – bu taklif hozirça nazariy asoslangan va empirik tekşiruvni talab etadi.

Axborot xavfsizligining huquqiy va pedagogik jihatlari

Bolalarni raqamli xavflardan himoya qilişning huquqiy asosi sezilarli kengaygan: axborot mahsulotlarini yoş toifalari böyiça tasniflaş, şaxsga doir ma’lumotlarni qayta işlaş qoidalari, kiberxavf tuşunçalarining huquqiy ta’rifi joriy etilgan. 2024-yilgi qonun bullingni zöravonlik şakli sifatida tan olib, ta’lim muassasalariga profilaktika dasturlarini joriy etiş majburiyatini yukladi; UNICEF uning kiberbullingni ham qamrab olişini ta’kidlagan. Biroq bu asoslar asosan taqiqlovçi va javob çoralariga yönaltirilgan, pedagogik vazifa esa içki me’yorni şakllantirişdir. Livingstone va Stoilova (2021) tasnifidagi kiberbulling, zararli kontent, ma’lumotlar oşkor bölişi, firibgarlik va yolğon axborot kabi xavflarning har biri bir neçta subyekt iştirokini talab qiladi. PISA 2022 asosidagi IMRS tadqiqotiga köra har yetti öquvçidan kamida biri maktabda özini xavfsiz his qilmaydi (Kun.uz, 2024), şuning uçun kiberbulling profilaktikasini umumiy maktab xavfsizligi siyosatidan ajratib bölmaydi.

Raqamli tengsizlikning özgarayotgan tabiati

1-rasmdan körinadiki, kiriş imkoniyati böyiça şahar–qişloq farqi deyarli yöqolgan, ya’ni birinçi darajali raqamli tafovut aholi darajasida asosan hal bölmoqda. Raqamli tengsizlik nazariyasiga köra, kiriş tenglaşgaç, farq könikmalar, foydalaniş maqsadi va natijalar darajasiga köçadi; rasmiy statistika bu tafovutlarni ölçamaydi. 2024-yilning birinçi yarmida 10+ yoşli aholining 79,2 foizi internetdan uyda, atigi 12,3 foizi ta’lim muassasasida foydalangan. Demak, öquvçining raqamli tajribasi asosan pedagogik nazoratdan taşqarida şakllanadi va oila hamda mahallaning tarbiyaviy roli ortadi.



1-rasm. *Şahar va qişloq joylarda internetdan foydalanuvçi aholi uluşi, 2021-2025 (10 yoş va undan katta aholi, %)*

*Manba: MSQ (2025c), uy xöjaliklari tanlanma kuzatuvi. *2025-yil uçun yanvar-avgust ma'lumoti. Farq (7,1 → 4,3 → 2,8 → 1,4 → 0,4 foiz punkt) muallif tomonidan hisoblangan. Körsatkiç foydalaniş çastotasi, sifati yoki maqsadini aks ettirmaydi.*

Konseptual model

Tahlil natijalari uç darajali modelga birlaştirildi. **Makro daraja** qonunçilik, ta'lim standartlari, raqamli infratuzilma va qadriyatlarni qamrab olib, klaster uçun me'yoriy çegaralar va resurslarni belgilaydi. **Mezo daraja** – klasterning özi: maktab, OTM, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, mahalla, malaka oşiriş markazlari va himoya organlarining muvofiqlaştiruvçi kengaş, umumiy reja va metodik resurslar orqali boğlangan tizimi. Uning markazida barça öquvçilarni muntazam qamrovçi yagona institut sifatida maktab turadi. **Mikro daraja** öquvçi, öqituvçi, ota-ona va tengdoşlar örtasidagi kundalik munosabatlarni öz içiga oladi; undagi hodisalar (masalan, kiberbulling holati) klaster uçun qayta aloqa manbai böladi. Ehtimoliy natijalar – mas'uliyatli raqamli iştirok, xavflarni anglaş va konstruktiv onlayn muloqot – ölçangan natijalar emas, konseptual maqsadlardir.

Modelni amalga oşirişda tört tösiq közga taşlanadi: resurs (maktab kompyuterlari tanqisligi), muvofiqlaştiriş (subyektlar turli idoralarga böysunadi), kadrlar (malaka oşirişda raqamli va tarbiyaviy yönalişlar alohida öqitiladi) va baholaş (raqamli-axloqiy kompetensiyani ölçaydigan milliy vosita yöq).

Muhokama

Özbekistonning siyosiy yönalişi umumiy jihatdan xalqaro tendensiyalarga mos, farq esa yondaşuv tuzilmasida. Yevropa ramkalarida axloqiy tarkib raqamli kompetensiya içida joylaşgan bölsa, Özbekistonda ma'naviy tarbiya va raqamli transformatsiya alohida hujjatlar, idoralar va fanlar orqali boşqariladi. Böliniş ma'naviy tarbiyani milliy kontekstga boğlaydi, ammo öquvçining raqamli tajribasi uni tan olmaydi.

Xalqaro ramkalarni töğridan-töğri köçiriş ham örinli emas: ular individual huquqlar va demokratik iştirokka tayanadi, Özbekistonda esa tarbiya oila va mahalla mas'uliyati bilan uzviy boğliq. Raqamli fuqarolikni "raqamli muhitdagi odob va mas'uliyat" sifatida talqin qiliş ijtimoiy jihatdan qabul qilinişi osonroq bölişi mumkin. Biroq bunday talqin faqat himoya va taqiqqa tayanib qolmasligi kerak: Kolbergga köra,

taşqi nazoratga asoslangan axloq rivojlanişning dastlabki bosqiçlariga xos (Kohlberg, 1981), raqamli muhitda esa kattalar nazorati doimo mavjud emas.

Statistika paradoksal vaziyatni oçib beradi: öquvçilar raqamli muhitga töliq kirgan, maktab esa ularni bu muhitga amaliy tayyorlaş imkoniyatiga töliq ega emas. UNESCO (2023) ham texnologiyani joriy etişda infratuzilmadan taşqari öqituvçilar tayyorgarligi va öquvçilarni salbiy ta'sirlardan himoya qilişga e'tibor qaratişni talab qiladi. OTM laboratoriyalari, mahalla markazlari va oilaviy resurslar orqali klaster bu böşliqni qisman qoplaşi mumkin. Şu bilan birga, köp subyektli tizimda hamkorlik rasmiy hisobotlar bilan almaşinişi, mas'uliyat esa Bandura tasvirlagan tarzda "tarqalib" ketişi mumkin; şu bois har bir vazifa uçun yetakçi subyekt aniq belgilanişi va model hududiy şaroitlarga moslaştirilişi zarur.

Xulosa va takliflar

Özbekistonda raqamli transformatsiya, uzluksiz ma'naviy tarbiya va bolalarni axborot xavflaridan himoya qiliş böyiça mustahkam huquqiy asos mavjud, biroq bu uç yönaliş maktab darajasida integratsiyalaşgan pedagogik mexanizmga ega emas. Aholi darajasida kiriş imkoniyati deyarli universal bölib, şahar–qişloq farqi 0,4 foiz punktgaça qisqargan, ammo maktab resurslari çeklanganligi sababli öquvçining raqamli tajribasi maktabdan taşqarida şakllanmoqda. Raqamli madaniyat va ma'naviy-axloqiy kompetensiyalar nazariy jihatdan ajralmas, pedagogik klaster esa ularni integratsiyalaş uçun mos taşkiliy şakl bölişi mumkin.

Amaliy takliflar: Tarbiya pedagogikasi milliy instituti taşabbusi bilan "Tarbiya" va informatika öqituvçilari uçun raqamli axloqiy vaziyatlarga bağişlangan umumiy modulni işlab çiqiş va malaka oşiriş dasturlariga kiritiş; har bir klasterda yetakçi subyektlari aniq belgilangan raqamli tarbiya muvofiqlaştiruvçi guruhini tuziş; maktablarning bullingga qarşi dasturlariga kiberbulling bölimi va öquvçilarga tuşunarli xabar beriş tartibini kiritiş; mahallalarda pedagogika OTM talabalari iştirokida ota-onalar uçun muntazam ma'rifiy uçraşuvlar ötkaziş; öquvçilarning yoşga xos raqamli faoliyati va maktablarning raqamli resurslari böyiça hududlar kesimidagi körsatkiçlarni muntazam e'lon qiliş; modelni tajriba maydonçalarida aralaş metodlar bilan sinab köriş va raqamli-axloqiy kompetensiyani baholaş vositasini validatsiya qiliş.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Özbekiston Respublikasining "Bolalarni ularning soğliğiga zarar yetkazuvçi axborotdan himoya qiliş töğrisida"gi qonuni. 2017.
2. Özbekiston Respublikasining "Şaxsga doir ma'lumotlar töğrisida"gi qonuni, 2019.
3. Özbekiston Respublikasining "Ta'lim töğrisidagi" qonuni, 2020.
4. Özbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik töğrisida"gi qonuni. 2022.
5. Özbekiston Respublikasining "Bolalarni zöravonlikning barça şakllaridan himoya qiliş töğrisida"gi qonuni. 2024.
6. Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlaş va uni amalga oşiriş çora-tadbirlari töğrisida"gi qarori, 2019.
7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toşkent: 1913.
8. Bandura A. Selective moral disengagement in the exercise of moral agency.

Journal of Moral Education, 2002.
9. Berkowitz M. W., Bier M. C. Research-based character education. The Annals of the American Academy of Political and Social Science, 2004.
10. Bronfenbrenner U. The ecology of human development: Experiments by nature and design. Harvard University Press, 1979.
11. Choi M.A concept analysis of digital citizenship for democratic citizenship education in the internet age. Theory and Research in Social Education, 2016.
12. Epstein J. L. School/family community partnerships: Caring for the children we share. Phi Delta Kappan, 1995.
13. Etzkowitz H., Leydesdorff L. The dynamics of innovation: From National Systems and "Mode 2" to a Triple Helix of university-industry-government relations. Research Policy, 2000.
14. Gazeta.uz. Uzbekistan's minister of digital technologies comments on Internet connectivity and computer accessibility in schools [IMRS ekspertlari ma'lumotlari keltirilgan], 2024.
15. Henderson A. T., Mapp K. L. A new wave of evidence: The impact of school, family, and community connections on student achievement. Southwest Educational Development Laboratory, 2002.
16. Kohlberg L. Essays on moral development: Vol. 1. The philosophy of moral development. Harper and Row, 1981.
17. Kun.uz. Safety concerns in Uzbekistan's schools: One in seven students feels unsafe [IMRS tadqiqoti, PISA 2022 ma'lumotlari asosida]. 2024.
18. Lickona T. Educating for character: How our schools can teach respect and responsibility. Bantam Books, 1991.
19. Livingstone S., Stoilova MThe 4Cs: Classifying online risk to children (CO:RE Short Report Series on Key Topics). Leibniz-Institut für Medienforschung. Hans-Bredow-Institut, 2021.
20. Özbekiston Respublikasi Milliy statistika qömitasi. Öz uyida internetdan foydalanayotganlar uluşi oşgan. 2024.
21. Özbekiston Respublikasi Milliy statistika qömitasi. Ta'lim muassasasida internetdan foydalanayotganlar uluşi oşgan. 2024.
22. Özbekiston Respublikasi Milliy statistika qömitasi. General secondary education in the Republic of Uzbekistan at the beginning of the 2025/2026 academic year. 2026.
23. Nişonov A. "Maktab - OTM - malaka oşiriş - işlab çiqariş" vertikal klaster tizimi asosida informatika öqituvçilari malakasini oşirişni taşkil etiş. Jamiyat va innovatsiyalar, 2023.
24. Porter M. E. Clusters and the new economics of competition. Harvard Business Review, 1998.
25. Richardson J., Milovidov E. Digital citizenship education handbook: Being online, well-being online, and rights online. Council of Europe Publishing, 2019.
26. Sobirova N. Cyberbullying as a contemporary form of adolescent victimization in social networks: A comparative criminological analysis. Jamiyat va innovatsiyalar, 2025.
27. van Dijk J. The Digital Divide. Cambridge: Polity Press. 2020.
28. Vuorikari R., Kluzer S., Punie Y. The Digital Competence Framework for Citizens. Publications Office of the European Union. 2022.